

NO'MON RAKHIMJANOV'S RESEARCH ON THE THEORY OF UZBEK POETRY

**Ro'zigul Sadulloyevna Qodirova,
Teacher, Bukhara State university
sadulloyevna1991@mail.ru**

Abstract. In this article the place and researches of N.Rakhimjanov on the theory of Uzbek literature was analysed. No'mon Rakhimjanov interprets the processes of renewal in our literature, first of all, in connection with the worldview. According to the scientist, "the change in socio-political, philosophical systems is, first of all, the change of worldviews." In this sense, the attitude to the work of art has been radically renewed. The scientist shows the peculiarities of this update on the basis of ten-point principles and draws certain conclusions from his observations.

Key words. Theory, literature, analysis, research, Uzbek poetry, interpretation.

Taniqli adabiyotshunos N.Rahimjonov tadqiqotlarining asosiy yo'nalishini XX asr o'zbek she'riyati va dostonlarini o'rganish tashkil etadi. Jumladan, olimning "Davr va o'zbek lirikasi" tadqiqotida sho'ro davri she'riyati va unga xos muhim xususiyatlar va M.Shayxzoda, Uyg'un, Mirtemir, Zulfiya, A.Muxtor, E.Vohidov, A.Oripov kabi o'ndan ziyod yorqin ijodkorlarning davr, Vatan, inson, tabiat mavzusidagi lirikasi tadqiq etiladi.

N.Rahimjonov XX va XXI asr boshlari oralig'idagi o'zbek she'riyati vakillarining ijodini o'rganar ekan, badiiy asar matnini tushunish va uni boshqalarga tushuntirish yo'lida biryoqlamalikdan qochishga, tayyor qoliplardan voz kechib, o'zgacharoq yo'ldan borishga harakat qildi. Xususan, bu yangicha izlanishlar olimning Asqad Muxtor she'riyatiga xos tun tovushlari, she'riy timsollar, badiiy tafakkur tabiati va individual uslub qirralarini o'rganishga bag'ishlangan risolasida namoyon bo'ladi. Olim Asqad Muxtor she'riyatida tun obrazining turli qirralari: tun tovushlari, tun ranglari, tun ramzlari bo'yicha ohori to'kilmagan yangi kuzatishlar qiladi.

N.Rahimjonovning "Lirik poema" (1961-1973 yillar o'zbek poeziyasi materiallari asosida) nomli nomzodlik, "Hozirgi o'zbek she'riyatining taraqqiyot tendensiyalari (70-80 yillar)" nomli doktorlik dissertastiyalari doston janri nazariyasiga bag'ishlangan salmoqli tadqiqotlardir. Bu ishlarda o'zbek poemasi vujudga kelishi, dastlabki namunalari, janrning taraqqiyot tamoyillari o'zining yorqin ifodasini topgan.

Taniqli olim "Adabiyotshunoslikning yangi bosqichi" maqolasida adabiyotshunosligimizdagi yangilanish jarayonlarini, eng avvalo, dunyoqarash bilan bog'lab talqin qiladi. Olim fikriga ko'ra "Ijtimoiy-siyosiy, falsafiy tizimlarning o'zgarishi avvalo dunyoqarashlarning o'rin almashinuvidir". Shu nuqtai nazardan badiiy asarga munosabat ham tubdan yangilandi. Olim ana shu yangilanishga xos xusuiyatlarni o'n banddan iborat tamoyillar asosida ko'rsatadi va o'z kuzatishlarida muayyan xulosalar chiqaradi. Bunda, birinchi navbatda, adabiyotshunoslikning badiiy asarni g'oyaviy-tematik jihatdan baholashiga chek qo'yilib, uni go'zallik hodisasi sifatida tadqiq va talqin etishga e'tibor kuchayayotgani tamoyil sifatida ko'rsatiladi. Shuningdek, olimning e'tiroficha, adabiyot ilmining turli fan sohalari – falsafa, folklor, tarix, falakiyot, tasviriy va amaliy san'at, din, kino, teatr va hokazolar bilan aloqalarning kuchayishi estetik

kategoriyalar ufqining kengayishiga xizmat qilmoqda. Olim e'tibor qaratgan yana bir tamoyillardan biri, bu – “o'zbek adabiyotining etuk badiiyat namunalarini jahon kontekstida tahlil qilishda ko'zga tashlanmoqda”.

Shuningdek, maqolada istiqloq yillariga kelib sho'ro davrida “xalq dushmani” deya qoralanib kelingan jadid adabiyoti namoyandalariga, jumladan, Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat kabi ijodkorlar ijodini o'rganishga e'tibor qaratilganligi va mazkur soha bo'yicha ko'plab adabiyotshunos olimlar etishib chiqqani adabiyot ilmining yutuqlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Maqolada adabiyotshunoslikning adabiy jarayondagi ijodiy izlanishlarni izchil kuzatib, uning etakchi tamoyillarini to'g'ri belgilayotgani, turli adabiy oqim va yo'nalishlarga ijobiy hodisa sifatida yondashayotganiga alohida e'tibor qaratiladi. Adabiyotshunoslikdagi ushbu ilmiy-ijodiy yangilanishlar mazkur fanning yutuqlari sifatida baholanadi. Ayni paytda olim adabiyotshunoslik oldida turgan dolzarb muammolar, yechimini kutayotgan masalalarga ham munosabat bildiradi. Bunda asosiy e'tibor quyidagilarga qaratiladi:

Birinchi, XX asr boshlaridan bugungi kungacha bo'lgan adabiyotshunoslik va tanqidchilik asarlarining mukammal bibliografiyasini yaratish;

Ikkinchi, tarjimashunoslikdagi sifat yangilanishini, aslyatdan tarjima qilish imkoniyatlari kengayganini hisobga olib, tarjimashunoslikning mustaqil fan sifatidagi konstepstiyalarini yaratish;

Uchinchi, adabiyotshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi kengayishi natijasida ko'plab yangi terminlar adabiyot ilmidan muhim o'rin ola boshladi. Bu esa bugungi kunda adabiyotshunoslikning qomusiy lug'atini yaratish masalasini kun tartibiga qo'yimoqda.

Ma'lumki, poema o'zbek she'riyatining muhim janrlaridan biri. XX asrda voqelikka aylangan bu janr genezisi, shakllanish xususiyatlari, tabiati singari

masalalar ilk bor yaxlit tarzda N.Rahimjonov tomonidan amalga oshirildi. Dastlab olim bu yo'nalishda "Lirik poema" nomli nomzodlik dissertastiyasini himoya qildi. Shu silsiladagi izlanishlarini davom ettirib "O'zbek adabiyotida poema" nomli monografiya yaratdi. Mohiyatan V.Kikansning "Zamonaviy poema" kitobiga yaqin turuvchi bu kitobda o'zbek adabiyotida yangi tipdagi poemaning tug'ilishini bir necha omillarga bog'lab tahlil etgan: mumtoz adabiyotimizda lirik yo'nalishda yozilgan "Qutadg'u bilig", "Hibatul haqoyiq", "Hayratul abror" singari dostonlar, noma janrida yozilgan "Muhabbatnoma", "Sayohatnoma" asarlari, shuningdek, muxammas, musaddas, musamman singari janrlarning mavjudligi. Sinchkov adabiyotshunos poema genazisini yuqoridagi asarlarga bog'lar ekan, bunda u mazkur asarlarni birlashtirib turuvchi muhim jihat: "shoirning qaynoq his tuyg'ulari, fikr o'ylari, emostional dunyosi"ning aks ettirilganligiga diqqatini qaratadi. Poema dunyoga kelishidagi keyingi omilni olim jahon adabiyoti sahifalaridan izlaydi: bunda jahon adabiyotidan o'zbek tiliga o'girilgan qator poemalarni misol qilib keltiradi. Shu tarzda adabiyotshunos poemaning o'tgan asrning 30 yillarida shakllanganligini asoslaydi. Mazkur tadqiqotning yana bir fazilatli jihati shundaki, olim dastlabki poemalarni lirik va liro-epik poemalarga bo'lib tasnif etadi hamda xususiyatlarini oydinlashtiradi.

N.Rahimjonovning yozishicha: "Lirik poemada hayot xossasi liro-epik poemadan farqli o'laroq, aniq syujet oqimida emas, balki "men" orqali ifodalangan lirik qahramonning ob'ektiv voqelikdan tug'ilgan ichki kechinmalari, ana shu hayotga munosabati, his-tuyg'ulari orqali ochiladi". Sh.Hasanov esa bugungi poemalar taraqqiyotidan kelib chiqib yozadi: "Liro-epik va lirik doston orasidagi asosiy farqni ob'ektiv va sub'ektiv tasvir usuli belgilaydi. Liro-epik dostonlarda voqea-hodisalar, xarakterlar, hayotning turfa manzaralari o'quvchi ko'z o'ngida gavdalana boshlaydi, shoirning shaxsiy ehtirolari esa ikkinchi darajaga o'tadi. Lekin lirik dostonda esa lirik qahramonning taassurotlari, ehtirolari yagona bir

mavzu doirasida badiylashadi va shoir qalbidagi tug'yonlar uzviy aloqadorlik kasb etadi. Agar unda ba'zi bir voqea tafsilotlari bayon etilsa-da, u ham lirik shaxsning ruhiy olamini yoki hasbi holini ochishga xizmat qiladi". Biroq hamma lirik poemalarda ham hasbi hol berilavermaydi. Shunga qaramay, adabiyotshunoslar qarashlarida mushtaraklik mavjud. Bu lirik poemada lirik qahramonning kechinmalari berilishi bilan bog'liq. His-tuyg'u, kechinmalar silsilasi esa ko'proq monologda yuzaga chiqadi.

Liro-epik poemada epik tasvir kuchlilik qiladi. Shuning uchun bunda liro-epik tushunchasini qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. N.Rahimjonovning liro-epik poema haqidagi qarashlari quyidagicha: "Liro-epik poemada obyekt bilan birga shoirning ana shu ob'ektga munosabati parallel ravishda mavjuddir. Unda voqeaning dialektik o'sishi bir necha qahramonlar taqdiri orqali ma'lum va aniq syujet oqimida tajassum topadi". E'tibor berilsa, liro-epik poemalarga berilgan ta'riflarni bitta nuqta birlashtirib turadi. Bu voqelikning yagona syujetga asoslanishidir.

Kitobning "Hozirgi poemachiligimizda janr va shakl izlanishlari" deb nomlangan bobida o'tgan asrning 50-60 yillaridan 80-yillariga qadar yozilgan poemalar tahlil etiladi. Xususan, lirik poema xillari, ularda liri va epik asos uyg'unligi, janr tabiatidagi sifat o'zgarishlari, dramatik poemaning vujudga kelishi singari ilmiy muammolar yorqin misollar orqali tahlil va tadqiq qilingan.

Xususan, olimning poema haqidagi quyidagi fikri nihoyatda ahamiyatli: "Poema shoirdan katta bir qalb qudratini, intellektual teranlikni, emostional jang'armani talab qiladi". Haqiqatan, XX asr adabiyotida poema janridagi asarlar shunday fazilatlar bilan roman yanglig' mavqe egallay oldi.

N.Rahimjonovning yozishicha: "Lirik poemada hayot xossasi liro-epik poemadan farqli o'laroq, aniq syujet oqimida emas, balki "men" orqali ifodalangan lirik

qahramonning obyektiv voqelikdan tug'ilgan ichki kechinmalari, ana shu hayotga munosabati, his-tuyg'ulari orqali ochiladi".

N.Rahimjonovning liro-epik poema haqidagi qarashlari V.Kikansga hamohanglik qiladi. Olim bu haqda yozadi: "Liro-epik poemada obyekt bilan birga shoirning ana shu obyektga munosabati parallel ravishda mavjuddir. Unda voqeaning dialektik o'sishi bir necha qahramonlar taqdiri orqali ma'lum va aniq syujet oqimida tajassum topadi".

Umuman olganda, adabiyotshunos olimning she'rshunoslikka oid tadqiqotlari yangi nazariy qarashlarga boyligi bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Рахимджанов Н. Лирическая поэма (на основе материалов узбекской поэзии 1961-1973 гг.) АКД. –Т., 1975.
2. Раҳимжонов Н. Ўзбек совет адабиётида поэма. –Т.: Фан, 1986. –174 б.
3. Раҳимжонов Н. Ўзбек совет поэмасининг тараққиёт жараёни. Китобда: Адабий турлар ва жанрлар. Т.: Фан, 1992. –Б. 171-292.
4. Рахимджанов Н.К. Тенденции развития современной узбекской поэзии (70-80-е годы). АДД. –Т., 1989. –С.42.
5. Кувватова Д. XX аср иккинчи ярми ўзбек дostonчилигининг тараққиёт хусусиятлари. ДД. – Тошкент, 2016. – 267 б